e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper *https://doi.org/10.67227/ge3dys87*

RAQAMLI JAMIYAT TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK TALQINI

Yo‘ldoshev Dilshodbek Abrorovich
«Oila va gender» ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktorant.
e-mail: dilshodyoldoshev113@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-4349-5456

Annotatsiya.
Maqolada «raqamli jamiyat» tushunchasi sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. E. Dyurkgeym, M. Veber, K. Marks va T. Parsons nazariyalarida jamiyat tushunchasining mohiyati qiyosiy o‘rganilib, ularning raqamli davrni tushuntirishdagi imkoniyatlari va cheklovlari aniqlanadi. Postindustrial, axborot va tarmoq jamiyati konsepsiyalari (D. Bell, Y. Masuda, M. Kastels, Ya. van Deyk) raqamli jamiyat nazariyasi rivojlanishining izchil bosqichlari sifatida tizimlashtiriladi. Muallif «raqamli jamiyat»ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur integratsiyalashgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat asosan raqamli infratuzilma orqali amalga oshiriladigan jamiyat modeli sifatida ta’riflashni taklif etadi. Shuningdek, mazkur ta’rifning to‘rtta tarkibiy komponenti nazariy jihatdan asoslanadi. Raqamli jamiyatning O‘zbekiston ijtimoiy hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarda namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinib, ushbu tushunchaning xotin-qizlar bandligini o‘rganishdagi metodologik ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalaridan raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tengsizlik va bandlik muammolarini sotsiologik jihatdan tadqiq etishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: raqamli jamiyat, jamiyat modeli, axborot jamiyati, tarmoq jamiyati, raqamli tafovut, ijtimoiy tuzilma, raqamli infratuzilma, sotsiologik talqin.

СОЦИОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ «ЦИФРОВОЕ ОБЩЕСТВО»

Юлдашев Дилшодбек Аброрович
Научно-исследовательский институт «Семья и гендер», докторант (PhD).

Аннотация.
В статье рассматривается понятие «цифровое общество» с социологической точки зрения. На основе сравнительного анализа теорий Э. Дюркгейма, М. Вебера, К. Маркса и Т. Парсонса исследуется сущность понятия общества, выявляются возможности и ограничения данных теоретических подходов в объяснении особенностей цифровой эпохи. Концепции постиндустриального, информационного и сетевого общества (Д. Белл, Ё. Масуда, М. Кастельс, Я. ван Дейк) систематизируются как последовательные этапы развития теоретических представлений о цифровом обществе. Автор предлагает определять «цифровое общество» как модель общества, в которой информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) глубоко интегрированы во все сферы общественной жизни, а социально-экономическая деятельность осуществляется преимущественно посредством цифровой инфраструктуры. Кроме того, теоретически обосновываются четыре структурных компонента предложенного определения. Анализируются особенности проявления цифрового общества в экономической, социальной, культурной и политической сферах общественной жизни Узбекистана, раскрывается методологическое значение данного понятия для изучения занятости женщин. Результаты исследования могут быть использованы при социологическом изучении проблем социального неравенства и занятости в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровое общество, модель общества, информационное общество, сетевое общество, цифровой разрыв, социальная структура, цифровая инфраструктура, социологическая интерпретация.

A SOCIOLOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF DIGITAL SOCIETY

Yo‘ldoshev Dilshodbek Abrorovich
Research Institute of Family and Gender, PhD Student.

Abstract.
This article examines the concept of a digital society from a sociological perspective. Through a comparative analysis of the theories of É. Durkheim, M. Weber, K. Marx, and T. Parsons, the study explores the essence of the concept of society and identifies the possibilities and limitations of these theoretical approaches in explaining the digital era. The concepts of post-industrial, information, and network societies (D.

ISSN 3060-5059 (Online)

Bell, Y. Masuda, M. Castells, and J. van Dijk) are systematized as successive stages in the theoretical development of the concept of digital society. The author proposes defining a digital society as a model of society in which information and communication technologies (ICT) are deeply integrated into all spheres of social life, while socioeconomic activities are predominantly carried out through digital infrastructure. The article also provides a theoretical justification for the four structural components of the proposed definition. Furthermore, it analyzes the manifestations of digital society in the economic, social, cultural, and political spheres of Uzbekistan and highlights the methodological significance of this concept for studying women's employment. The findings may be applied to sociological research on social inequality and employment challenges in the context of digital transformation.

Keywords: digital society, model of society, information society, network society, digital divide, social structure, digital infrastructure, sociological interpretation.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy munosabatlarga chuqur kirib borishi natijasida «raqamli jamiyat» tushunchasi zamonaviy sotsiologiyaning asosiy kategoriyalaridan biriga aylandi. Bu jarayonning ko‘lami xalqaro statistikada ham yaqqol ko‘rinadi, biroq u bir xil taqsimlanmagan. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda dunyoda erkaklarning 70 foizi, ayollarning esa 65 foizi internetdan foydalangan [1]. Jahon bankining 2025-yilgi hisobotida esa xotin-qizlar dunyo miqyosidagi AKT mutaxassislarining atigi 24 foizini tashkil etishi qayd etilgan [2]. Demak, raqamlashtirish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy tengsizlik shakllarini qayta ishlab chiqaruvchi jarayon sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan: «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilaydi [3]. Shu bilan birga, mahalliy ilmiy adabiyotlarda raqamli jamiyat masalasi asosan iqtisodiy nuqtayi nazardan — raqamli iqtisodiyot, bandlikning yangi shakllari va raqamli ko‘nikmalar kontekstida o‘rganilgan [4; 5; 6]. «Axborot jamiyati», «tarmoq jamiyati», «raqamli iqtisodiyot» va «raqamli jamiyat» atamalari ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatiladi, «raqamli jamiyat»ning sotsiologik mazmuni, uning jamiyat modeli sifatidagi o‘rni va ijtimoiy tuzilma bilan aloqasi esa yetarlicha aniqlashtirilmagan. Bu ilmiy bo‘shliq, ayniqsa, xotin-qizlar bandligi kabi ijtimoiy jihatdan sezgir sohani tahlil qilishda sezilarli bo‘ladi: tushuncha texnologiya bilan tenglashtirilsa, bandlikdagi imkoniyatlar va to‘siqlarning ijtimoiy mexanizmlari tadqiqotchi nazaridan chetda qoladi.

Tadqiqotning maqsadi — «raqamli jamiyat» tushunchasining sotsiologik mazmunini klassik va zamonaviy nazariyalar asosida ochib berish hamda uning mualliflik ta’rifini asoslash. Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: (1) jamiyat tushunchasiga oid klassik sotsiologik yondashuvlarni raqamli davr nuqtayi nazaridan qiyosiy baholash; (2) postindustrial, axborot va tarmoq jamiyati konsepsiyalarini raqamli jamiyat nazariyasining bosqichlari sifatida tizimlashtirish; (3) raqamli jamiyatning ta’rifini shakllantirib, uning tarkibiy komponentlarini asoslash; (4) tushunchaning O‘zbekiston ijtimoiy hayotidagi ko‘rinishlari va xotin-qizlar bandligini o‘rganish uchun metodologik ahamiyatini aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Klassik sotsiologiyada jamiyat tushunchasi

Raqamli jamiyatning sotsiologik mazmunini ochishdan oldin jamiyat, ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashtirish zarur. Sotsiologik nuqtayi nazardan shaxs jamiyatdan tashqarida shakllanmaydi: u oila, mahalla, ta’lim, mehnat jamoasi kabi institutlar doirasida muayyan mavqe, rol va qadriyatlarni o‘zlashtiradi [7]. «Jamiyat» atamasi arabcha «jam» — «to‘plamoq», «birlashtirmoq» ma’nolariga borib taqaladi; sotsiologik mazmunda esa u kishilarning oddiy yig‘indisi emas, balki barqaror ijtimoiy aloqalar, institutlar va me’yorlar orqali o‘zaro bog‘langan tizimdir. I. Saifnazarov va hammualliflar jamiyatni faqat barqarorlik va integratsiya bilan emas, balki manfaatlar to‘qnashuvi, ijtimoiy tengsizlik va resurslarning notekis taqsimlanishi bilan ham tavsiflaydilar [8]. Bu fikr raqamli davrda internetdan foydalanish imkoniyati, raqamli ko‘nikmalar va platformalardagi mehnat shartlari ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytiruvchi yoki yumshatuvchi omillarga aylanayotgani nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega.

E. Dyurkgeym ijtimoiy faktlarni individ ongidan tashqarida mavjud bo‘lib, uning xatti-harakatlariga majburlovchi ta’sir ko‘rsatadigan fikrlash, his qilish va harakat usullari sifatida talqin qiladi [9]. M. Veber esa sotsiologiyaning vazifasini ijtimoiy harakatni tushunish va uning kechishi hamda oqibatlarini sababiy izohlash bilan bog‘laydi; uning fikricha, xatti-harakat boshqalarga yo‘naltirilgan va subyektiv ma’noga ega bo‘lgandagina ijtimoiy harakatga aylanadi [10]. K. Marks jamiyatning iqtisodiy asosini moddiy ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘laydi [11], T. Parsons esa jamiyatni moslashish, maqsadga erishish, integratsiya va qadriyat namunalarini saqlash funksiyalarini bajaruvchi o‘zaro bog‘liq quyi tizimlardan iborat ijtimoiy tizim sifatida ta’riflaydi [12]. E. Giddens va F. Satton jamiyatni muayyan hududda yashovchi, umumiy siyosiy hokimiyat va jamoaviy mansublik hissi bilan birlashgan kishilar birligi sifatida ko‘radilar [13].

Postindustrial, axborot va tarmoq jamiyati konsepsiyalari

«Axborot jamiyati» atamasining kelib chiqishi XX asrning 1960-yillaridagi yapon ilmiy va publitsistik muhitiga borib taqaladi (T. Umesao, 1963); atamaning dastlabki qo‘llanishiga oid manbalarni A. Duff, D. Craig va D. McNeill tahlil qilgan [14]. D. Bell 1973-yilda nashr etilgan asarida sanoat ishlab chiqarishi ustuvorligining bilim, axborot va xizmatlar salmog‘i ortadigan yangi tuzilma bilan almashishini tahlil qilib, nazariy bilimni yangi jamiyatning strategik resursi deb hisoblagan [15]. Y. Masuda industrial jamiyatdan axborot jamiyatiga o‘tishning konseptual modelini taklif etgan [16]. M. Kastels zamonaviy jamiyatning asosiy tashkiliy xususiyatini odamlar, tashkilotlar va institutlarning AKT yordamida

ISSN 3060-5059 (Online)

tarmoqlar orqali o‘zaro bog‘lanishida ko‘radi: masala texnologiyaning keng tarqalishida emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tarmoq tamoyili asosida qayta tashkil etilishidadir [17]. Ya. van Deyk tarmoq jamiyatini ijtimoiy munosabatlarning kommunikatsiya va media tarmoqlari orqali qayta tashkil etilishi bilan bog‘laydi [18], keyingi ishlarida esa raqamli tafovutni faqat jismoniy kirish imkoniyati emas, balki moddiy kirish imkoniyati, ko‘nikmalar va foydalanish natijalaridagi tengsizlik sifatida talqin etadi [19].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan B. A. Begalov va M. K. Abdullayev postindustrial iqtisodiyotda bilim asosiy rivojlanish omiliga aylanishini, axborot iqtisodiyotidan bilimlar iqtisodiyotiga o‘tishda esa samaradorlik axborotni to‘plash bilangina emas, balki undan yangi bilim yaratish va amaliy qaror qabul qilish imkoniyati bilan belgilanishini ta’kidlaydilar [4]. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllari D. A. Nasimov [5], O. Sh. Uzaqov [6] va O. U. Oxunova [20] tadqiqotlarida o‘rganilgan. BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yilgi tahlilida esa O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotida ayollar va qishloq jamoalari uchun moslashtirilgan raqamli hamda moliyaviy savodxonlik dasturlarini rivojlantirish zarurligi qayd etilgan [21]. Ushbu ishlarda raqamli jamiyatning ijtimoiy-tuzilmaviy mohiyati (guruhlar, institutlar, tengsizlik) ikkinchi darajali masala sifatida qolgan. Aynan shu jihat mazkur maqolaning tahliliy yo‘nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega. Quyidagi usullardan foydalanildi: (1) qiyosiy tahlil — klassik va zamonaviy sotsiologik nazariyalardagi jamiyat ta’riflarini uchta mezon bo‘yicha solishtirish: jamiyat ta’rifi, metodologik yo‘nalish hamda raqamli davrni izohlash uchun tahliliy imkoniyatlar va cheklovlar; (2) tarixiy-mantiqiy usul — postindustrial, axborot, tarmoq va raqamli jamiyat konsepsiyalarining izchilligini aniqlash; (3) konseptual tahlil — tushunchani tarkibiy komponentlarga ajratib, har birini nazariy jihatdan asoslash; (4) normativ hujjatlarning mazmuniy tahlili — «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi misolida; (5) tizimlashtirish va modellashtirish. Empirik misollar O‘zbekistonning ommaviy raqamli xizmatlari (elektron to‘lovlar, davlat xizmatlari, ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar) bo‘yicha keltirilgan va ular tushunchaning amaliy ko‘rinishini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Statistik umumlashtirish maqolaning maqsadiga kirmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. KLASSIK YONDASHUVLARNING RAQAMLI DAVR UCHUN IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLARI

Klassik nazariyalarning qiyosiy tahlili (1-jadval) shuni ko‘rsatadiki, har bir yondashuv jamiyatning muayyan o‘lchamini yoritadi, biroq raqamli jamiyatni to‘liq tushuntirish uchun yagona yondashuv yetarli emas.

1-jadval

Jamiyat tushunchasiga oid klassik sotsiologik yondashuvlarning raqamli davr nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlili

Olim	Jamiyat ta’rifi	Metodologik yo‘nalish	Raqamli davr uchun imkoniyat va cheklov
E. Dyurkgeym[9]	Ijtimoiy faktlar majmui; individdan tashqarida mavjud, majburlovchi kuchga ega tuzilma.	Metodologik obyektivizm; jamiyat individ ustidan hukmron.	Platforma qoidalari va algoritmlarning «majburlovchi» kuchini tushuntiradi; biroq shaxs faolligi va tuzilmaning dinamikasi yetarlicha baholanmaydi.
M. Veber[10]	Subyektiv ma’noga ega ijtimoiy harakatlar tarmog‘i.	«Tushunuvchi sotsiologiya»; xatti-harakat motiv va ma’no orqali izohlanadi.	Xotin-qizlarning masofaviy ishni tanlash motivlarini tushunishga yordam beradi; makro-tuzilmaviy jarayonlarni faqat individual harakatlarga olib kelish xavfi bor.
K. Marks[11]	Ishlab chiqarish, mulkiy munosabatlar va sinflar o‘rtasidagi aloqalar tizimi.	Iqtisodiy determinizm; sinfiy munosabatlar tahlili.	Platformalar, ma’lumotlar va algoritmlar nazorati orqali mehnat–kapital munosabatini yoritadi; madaniy, gender va institutsional omillarning mustaqil rolini kam hisobga oladi.
T. Parsons[12]	O‘zaro bog‘langan institutlar, me’yorlar va rollardan iborat yaxlit tizim.	Struktural-funksional yondashuv (AGIL).	Raqamli transformatsiyada institutlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi; ziddiyat va tezkor o‘zgarishlarni izohlash imkoniyati cheklangan.
E. Giddens, F. Satton[13]	Muayyan hududda yashovchi, umumiy siyosiy boshqaruv va mansublik hissi bilan birlashgan kishilar tizimi.	Zamonaviy yondashuv; globallashuv va raqamli aloqalar birgalikda tahlil qilinadi.	Hududiylik muhim belgi bo‘lib qoladi, biroq raqamli muhit aloqalarning hududiy chegaradan tashqarida ham shakllanishiga imkon beradi.

Manba: ilmiy manbalar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlildan muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: Dyurkgeym va Parsons yondashuvlari raqamli jamiyatda tuzilmaning (platforma qoidalari, infratuzilma, institutlar) shaxs xulq-atvoriga ta’sirini, Veber yondashuvi esa xotin-qizlarning raqamli mehnatdagi tanlovi, motivatsiyasi va platformalarga kirish strategiyalarini tushunishga imkon beradi.

Tanlov esa ijtimoiy sharoitdan mustaqil emas: xotin-qizlarning masofaviy ishni tanlashi shaxsiy istak bilan birga, oilaviy majburiyatlar, hududdagi ish imkoniyatlari, raqamli infratuzilma, kasbiy malaka va ish beruvchi talablariga bog‘liq. Demak, raqamli jamiyatni tahlil qilishda tuzilma va shaxs faoliyatini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rish zarur. Bu fikr zamonaviy sotsiologiyada tuzilma va faoliyatning o‘zaro ta’siri tamoyili sifatida keng qo‘llanadi [13].

2. JAMIYAT TUSHUNCHASINING SINTEZI

Klassik va zamonaviy talqinlarni umumlashtirib, jamiyatni quyidagi besh belgi bilan tavsiflash mumkin: u (1) tarixan shakllangan; (2) umumiy ehtiyoj va manfaatlar asosida uyushgan; (3) ichki tuzilishga (institutlar, guruhlar, qatlamlar) ega; (4) o‘zini o‘zi tartibga solish va takror ishlab chiqarish qobiliyatiga ega; (5) a’zolari o‘rtasida barqaror ijtimoiy aloqalar va o‘zaro ta’sirlar tarmog‘i mavjud bo‘lgan kishilarning murakkab, yaxlit tizimidir. Raqamli inqilob aynan shu belgilarning mazmunini o‘zgartiradi: ijtimoiy birliklar (guruh, hamjamiyat) endi faqat hududiy yaqinlik asosida emas, balki tarmoqdagi ishtirok, raqamli ko‘nikmalar va onlayn hamjamiyatlarga mansublik asosida ham shakllanadi. Platformalar orqali yuzaga kelgan aloqalar esa kasbiy hamkorlik, mehnat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning barqaror tarmog‘iga aylanishi mumkin. Bir shaxsning bir vaqtning o‘zida oila a’zosi, muayyan kasb egasi, hududiy hamjamiyat a’zosi va raqamli professional tarmoq ishtirokchisi bo‘lishi, ya’ni ko‘p mansublik, uning resurslari va imkoniyatlariga turli muhitlar bir vaqtda ta’sir qilishini bildiradi.

3. RAQAMLI JAMIYAT NAZARIYASINING BOSQICHLARI

Raqamli jamiyat konsepsiyasining nazariy ildizlari postindustrial va axborot jamiyati nazariyalariga borib taqaladi. 2-jadvalda bu konsepsiyalar izchil bosqichlar sifatida tizimlashtirilgan.

2-jadval

Raqamli jamiyat konsepsiyasining nazariy taraqqiyot bosqichlari

Olim, yil	Asosiy g‘oya	Raqamli jamiyat nazariyasiga qo‘shgan hissasi
T. Umesao (Yaponiya), 1963[14]	Axborot va bilim ishlab chiqarish sanoatdan keyingi taraqqiyotning omiliga aylanadi.	Axborot jamiyati g‘oyasining dastlabki nazariy asoslari.
D. Bell (AQSh), 1973[15]	Nazariy bilim va axborot kelajak jamiyatining strategik resursi.	Postindustrial jamiyat nazariyasi — raqamli jamiyatga o‘tishning metodologik zamini.
Y. Masuda (Yaponiya), 1980[16]	Axborot-bilim ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotining bosh omili.	Industrial jamiyatdan axborot jamiyatiga o‘tishning konseptual modeli.
M. Kastels (Ispaniya/AQSh), 1996 (2-nashr 2010)[17]	Tarmoq — yangi ijtimoiy tuzilmaning asosiy shakli.	«Tarmoq jamiyati» tushunchasi; iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tarmoq tamoyili asosida qayta tashkil etilishi.
Ya. van Deyk (Niderlandiya), 1999 va keyingi ishlar[18; 19]	Ijtimoiy munosabatlar kommunikatsiya tarmoqlari orqali amalga oshadi.	Raqamli tafovut konsepsiyasi: kirish, ko‘nikma va foydalanish natijalaridagi tengsizlik.

Manba: ilmiy manbalar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, nazariyalar mantiqiy ketma-ketlikni hosil qiladi: bilim va axborotning strategik resursga aylanishi (Bell, Masuda) → ijtimoiy aloqalarning tarmoq shaklini olishi (Kastels, van Deyk) → bu tarmoqlarga kirish va ulardan foydalanishdagi tengsizlikning tadqiq etilishi (van Deyk). Raqamli jamiyat tushunchasi shu izchillikning navbatdagi bo‘g‘ini bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning asosiy jarayonlari raqamli infratuzilma vositasida tashkil etilayotgan bosqichni ifodalaydi.

4. RAQAMLI JAMIYATNING MUALLIFLIK TA’RIFI VA UNING TARKIBIY KOMPONENTLARI

Qiyosiy tahlil asosida, bizningcha, **raqamli jamiyat — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarga singib ketgan va ijtimoiy-iqtisodiy hayot asosan raqamli infratuzilma orqali amalga oshadigan jamiyat modelidir.** Taklif etilayotgan ta’rif to‘rt komponentdan iborat bo‘lib, ularning har biri 3-jadvalda nazariy jihatdan asoslangan.

3-jadval

Raqamli jamiyat mualliflik ta’rifining ilmiy asoslari va tarkibiy komponentlari

Ta’rif komponenti	Ilmiy asoslash	Zamonaviy misol
«Jamiyat modeli» sifatida	Dyurkgeym, Marks va Bell an’anasida har bir tarixiy bosqich ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos tipik tashkil etilish shakli — jamiyat modeli bilan tavsiflanadi; raqamli jamiyat ham o‘ziga xos ichki mantiq va tashkiliy tamoyillarga ega alohida model sifatida qaralishi lozim.	An’anaviy model: ikki tadbirkor o‘rtasidagi bitim yuzma-yuz uchrashuv, qo‘l berib ko‘rishish va qog‘oz shartnoma orqali amalga oshadi. Raqamli model: elektron raqamli imzo, onlayn bank o‘tkazmasi va raqamli platforma orqali.
AKTning «barcha sohalarga singib ketganligi»	Kastels va van Deyk yondashuvida texnologiya shunchaki vosita emas, ijtimoiy tuzilmaning o‘zini qayta tashkil etuvchi omil; gap foydalanish darajasi haqida emas, integratsiya chuqurligi	Iqtisod, ta’lim, boshqaruv va madaniy muloqot raqamli platformalar orqali amalga oshadi.

Ta'rif komponenti	Ilmiy asoslash	Zamonaviy misol
	haqida boradi.	
«Ijtimoiy-iqtisodiy hayot» birligida	Parsonsning tizimli yondashuvi: jamiyat ajralmas funksional birlik sifatida tahlil qilinadi — iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar o'zaro bog'liq.	Masofaviy ish ham iqtisodiy (daromad), ham ijtimoiy (oila, hududiy hamjamiyat bilan aloqa) hodisadir.
«Raqamli infratuzilma orqali»	Bell va Masuda nazariyalarida infratuzilma va resurs jamiyat taraqqiyotining asosi; raqamli davrda bunday asos — tarmoq, qurilma, platforma va ma'lumotlar.	Internet, mobil aloqa, bulutli hisoblash, ma'lumotlar markazlari — yangi ijtimoiy infratuzilma.

Manba: muallif ishlanmasi.

Ta'rifning kuchli jihati shundaki, u raqamli jamiyatni texnologiyalarning mavjudligi bilan emas, balki ijtimoiy hayotning tashkil etilish usuli bilan belgilaydi. Shu sababli «raqamli jamiyat» tushunchasi «axborot jamiyati» va «raqamli iqtisodiyot» tushunchalaridan farqlanadi. Axborot jamiyati tushunchasida markaziy o'rinni axborot va bilimning resurs sifatidagi roli egallaydi; tarmoq jamiyati ijtimoiy tuzilmaning tarmoq morfologiyasiga urg'u beradi; raqamli iqtisodiyot esa jamiyatning faqat bir quyi tizimini — xo'jalik faoliyatini qamrab oladi. Raqamli jamiyat tushunchasi esa institutlar (oila, ta'lim, mehnat, davlat boshqaruvi) faoliyati va kundalik amaliyotlarning raqamli infratuzilma vositasida qayta tashkil etilishini yaxlit jarayon sifatida ifodalaydi. Bu tafovut bizning tahliliy xulosamiz bo'lib, uni keyingi empirik tadqiqotlarda sinash mumkin.

5. RAQAMLI JAMIYATNING O'ZBEKISTON IJTIMOIY HAYOTIDAGI KO'RINISHLARI

AKTning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga singib borishi O'zbekiston misolida 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

AKTning O'zbekiston ijtimoiy hayotining asosiy sohalariga integratsiyasi

Soha	Raqamli transformatsiya ko'rinishlari	Misollar
Iqtisodiy	Elektron tijorat, onlayn bank xizmatlari, raqamli platformalar orqali bandlik, frilanserlik.	Uzum Market, Wildberries, Click, Payme, Oson
Ijtimoiy	Masofaviy ta'lim, elektron tibbiy kartalar, onlayn nafaqa tayinlash.	HEMIS, Moodle platformalari; elektron navbat tizimlari
Madaniy	Ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot, raqamli kontent iste'mol qilish.	Telegram, Instagram, TikTok; onlayn kino, musiqa, kitoblar
Siyosiy-boshqaruv	Davlat boshqaruvi va fuqarolar bilan muloqotni raqamlashtirish.	my.gov.uz platformasi; my.soliq mobil ilovasi
Xotin-qizlar bandligi	Masofaviy ish, moslashuvchan bandlik shakllari, raqamli tadbirkorlik; shu bilan birga yangi to'siqlar — raqamli gender tafovuti, platforma iqtisodiyotida kamsitish xavfi.	Keyingi tadqiqotlarda empirik o'rganiladi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Iqtisodiy sohada an'anaviy savdo va xizmat ko'rsatish shakllari bilan bir qatorda elektron tijorat, onlayn bank xizmatlari, masofaviy ish va platformalar orqali xizmat ko'rsatish kengayib bormoqda. Ijtimoiy sohada raqamli texnologiyalar masofaviy ta'lim, elektron davlat xizmatlari va ijtimoiy himoya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda, biroq raqamli ko'nikmalar va infratuzilmadan foydalanishdagi tafovutlar ayrim guruhlarning imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Madaniy-kommunikativ sohada ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar kundalik muloqot va jamoaviy identifikatsiya shakllarini o'zgartirib, shaxsning axborot resurslari, kasbiy aloqalari va ijtimoiy kapitaliga ta'sir ko'rsatmoqda. Siyosiy-boshqaruv sohasida davlat xizmatlarining elektron shaklga o'tishi davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarning tashkiliy shaklini o'zgartirmoqda. Bu raqamli jamiyatni faqat iqtisodiy hodisa emas, balki ijtimoiy institutlar faoliyatining kompleks transformatsiyasi sifatida talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi.

6. RAQAMLI JAMIYAT VA IJTIMOIY TENGSIZLIK: XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI O'RGANISH UCHUN METODOLOGIK XULOSALAR

Raqamli jamiyat modeli xotin-qizlar bandligi uchun yangi imkoniyatlar — masofaviy ish, moslashuvchan bandlik shakllari, raqamli tadbirkorlik — yaratadi, shu bilan birga, yangi cheklovlarni ham yuzaga keltiradi: raqamli ko'nikmalarning yetishmasligi, raqamli gender tafovuti, platforma mehnatining beqarorligi va algoritmik kamsitish xavfi. Xalqaro tadqiqotlar bu ikki tomonlamalikni tasdiqlaydi. M. Abraham Germaniya misolida ish joyida raqamli texnologiyalardan foydalanishda sezilarli gender tafovuti mavjudligini, bu tafovut ta'lim, kasbiy malaka va texnologiyaga moyillik hisobga olingandan keyin ham saqlanib qolishini aniqlagan; shaxsiy hayotda raqamli texnologiyalardan foydalanish esa nisbatan muvozanatli bo'lgan. Muallif bundan tafovutning shakllanishida individual afzalliklardan ko'ra tizimli (strukturaviy) cheklovlar muhimroq, degan xulosa chiqaradi. Bundan tashqari, raqamli ishtirok shaxsiy daromad bilan ijobiy bog'liq bo'lsa-da, gender ish haqi tafovutini kamaytirmaydi [22]. Bu natija sotsiologik nuqtayi nazardan muhim: texnologiyadan foydalanish imkoniyatlari tengligi natijalar tengligini kafolatlamaydi — van Deyk ta'biri bilan aytganda, tafovut foydalanish imkoniyatidan ko'nikma va foydalanish natijalariga ko'chadi [19]. Mehnat bozori va uy xo'jaligining gender jihatdan betaraf emasligi haqidagi tadqiqotlar (J. Acker, N. Folbre, A. Hochschild) ham raqamli muhitga ko'chib o'tayotgan mehnatni tahlil qilishda ushbu xulosani qo'llab-quvvatlaydi [23].

Shu asosda raqamli jamiyatning sotsiologik talqinidan xotin-qizlar bandligini tadqiq etish uchun uchta metodologik xulosa kelib chiqadi:

– **Ko‘p mansublik va interseksionallik.** Xotin-qiz bir vaqtning o‘zida oila, kasb, hudud va raqamli tarmoq a’zosi bo‘lgani uchun uni faqat «xodim» sifatida emas, balki turli ijtimoiy muhitlar kesishgan mavqega ega shaxs sifatida o‘rganish kerak. Bu bandlik imkoniyatlarini yosh, ta’lim, oilaviy holat va hudud bilan kesishuvda tahlil qilishni taqozo etadi.

– **Tuzilma va faoliyatning birligi.** Raqamli mehnatdagi tanlovni (Veber) infratuzilma, institutlar va gender me’yorlari (Dyurkgeym, Parsons) bilan bog‘lab talqin etish lozim. Shaxsiy motivlar yoki faqat tuzilmaviy sharoitga asoslangan tushuntirishlar bir tomonlama bo‘ladi.

– **Raqamli tafovutning ko‘p darajaliligi.** Raqamli infratuzilmaning mavjudligi undan foydalanish imkoniyatlarining tengligini bildirmaydi. Tahlil foydalanish imkoniyati, ko‘nikma va natija (bandlik, daromad, rasmiylik, ijtimoiy himoya) darajalarini alohida o‘lchashni talab qiladi.

Mazkur xulosalar «raqamli jamiyat» tushunchasini texnologik emas, balki ijtimoiy-tuzilmaviy kategoriya sifatida qo‘llashga imkon beradi va xotin-qizlarning raqamli bandligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni empirik o‘rganish uchun nazariy asos bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, maqola nazariy-konseptual xarakterga ega: taklif etilgan ta’rif keyingi tadqiqotlarda empirik o‘lchov (indikatorlar tizimi) darajasiga o‘tkaziladi, shu sababli uning prediktiv kuchi hozircha sinovdan o‘tmagan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga asos bo‘ladi.

– Klassik sotsiologik nazariyalar (Dyurkgeym, Veber, Marks, Parsons, Giddens) jamiyatning turli o‘lchamlarini — tuzilma, ma’no, ishlab chiqarish munosabatlari, tizimli funksiyalar, hududiy-siyosiy birlikni — yoritadi. Raqamli jamiyatni tushuntirish uchun ularning kombinatsiyasi talab etiladi.

– Postindustrial (Bell), axborot (Masuda) va tarmoq jamiyati (Kastels, van Deyk) konsepsiyalari raqamli jamiyat nazariyasining izchil bosqichlarini tashkil etadi: bilimning strategik resursga aylanishi → aloqalarning tarmoq shaklini olishi → tarmoqqa kirish va undan foydalanishdagi tengsizlik.

– Raqamli jamiyatni AKT barcha sohalarga singib ketgan va ijtimoiy-iqtisodiy hayot asosan raqamli infratuzilma orqali amalga oshadigan jamiyat modeli sifatida ta’riflash asosli hisoblanadi. Ta’rif to‘rt komponentga (jamiyat modeli, AKTning singib ketganligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot birligi, raqamli infratuzilma) tayanadi va tushunchani «axborot jamiyati» hamda «raqamli iqtisodiyot»dan farqlashga imkon beradi.

– O‘zbekistonda raqamli jamiyatning belgilari iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy-boshqaruv sohalarida kuzatiladi. Xotin-qizlar bandligi uchun bu jarayon bir vaqtning o‘zida imkoniyatlar va yangi ijtimoiy to‘siqlar manbai hisoblanadi.

– Tushunchaning sotsiologik talqini bandlik tadqiqotlari uchun uchta metodologik tamoyilni belgilaydi: ko‘p mansublik va interseksionallik, tuzilma va faoliyatning birligi, raqamli tafovutning ko‘p darajaliligi.

Raqamli transformatsiyaga oid davlat dasturlari va statistik monitoringda raqamli jamiyatni faqat infratuzilma ko‘rsatkichlari (internet qamrovi, foydalanuvchilar soni) bilan emas, balki jins, hudud, yosh va ta’lim kesimida ko‘nikma va natija ko‘rsatkichlari bilan ham baholash maqsadga muvofiq. Bu gender jihatdan sezgir raqamli siyosatni shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Telecommunication Union. Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024. – Geneva: ITU, 2024. – URL: https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/facts-figures-2024/. itu.int
2. World Bank. Digital Progress and Trends Report 2025: Strengthening AI Foundations. – Washington, DC: World Bank, 2025. – P. 71–83. – URL: https://www.worldbank.org/en/publication/dptr2025-ai-foundations/report. worldbank.org
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 06.10.2020. – № 06/20/6079/1349. – URL: https://lex.uz/uz/acts/-5030957. lex.uz
4. Begalov B. A., Abdullayev M. K. Raqamli iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – B. 11–13. – URL: https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2024/06/Raqamli-iqtisodiyot.pdf. library-samdukf.uz
5. Nasimov D. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – URL (himoya e’loni): https://oak.uz/index.php/pages/5689. oak.uz
6. Uzaqov O. Sh. Raqamli transformatsiya sharoitida ish bilan bandlik shakllarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – URL: https://library.ziyonet.uz/book/135783. library.ziyonet.uz
7. Qirg‘izboyev M. Sotsiologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – B. 132–175. – URL: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/02/NamDU-ARM-12590-Sotsiologiya.pdf. namdu.uz
8. Saifnazarov I., Muxtorov A., Hoshimova G., Qurbonaliyeva H. I. Sotsiologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – B. 152–155.
9. Durkheim E. The Rules of Sociological Method / ed. by S. Lukes; transl. by W. D. Halls. – New York: Free Press, 1982. – P. 52. – URL: https://search.worldcat.org/title/8495014. WorldCat.org
10. Weber M. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology / ed. by G. Roth, C. Wittich. – Berkeley: University of California Press, 1978. – P. 4. – URL: https://opac.duls.du.ac.in/bib/250473. opac.duls.du.ac.in

11. Marx K. A Contribution to the Critique of Political Economy / transl. by S. W. Ryazanskaya; ed. and introd. by M. Dobb. – New York: International Publishers, 1970. – P. 20. – URL (bibliografik qayd): https://ci.nii.ac.jp/author/DA00034578. Marx, Karl
12. Parsons T. The Social System. – Glencoe, IL: Free Press, 1951. – P. 24–26. – URL: https://search.worldcat.org/title/253779. search.worldcat.org
13. Giddens A., Sutton P. W. Sociology. – 8th ed. – Cambridge: Polity Press, 2017. – P. 12. – URL: https://ndlsearch.ndl.go.jp/en/books/R100000136-I1970586434869911179. ndlsearch.ndl.go.jp
14. Duff A. S., Craig D., McNeill D. A. A Note on the Origins of the "Information Society" // Journal of Information Science. – 1996. – Vol. 22, № 2. – P. 117–122. – DOI: https://doi.org/10.1177/016555159602200204. journals.sagepub.com
15. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books, 1973. – URL: https://openlibrary.org/books/OL5306206M/The_coming_of_post-industrial_society. Open Library
16. Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. – Tokyo: Institute for the Information Society, 1980. – URL: https://ndlsearch.ndl.go.jp/books/R100000002-I000001517295. 国立国会図書館
17. Castells M. The Rise of the Network Society. – 2nd ed., with a new preface. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2010. – DOI: https://doi.org/10.1002/9781444319514. onlinelibrary.wiley.com
18. Van Dijk J. The Network Society: Social Aspects of New Media. – London: SAGE Publications, 1999. – 267 p. – URL: https://research-portal.uu.nl/en/publications/the-network-society-social-aspects-of-new-media/. research-portal.uu.nl
19. Van Dijk J. A. G. M. The Digital Divide. – Cambridge: Polity Press, 2020. – URL: https://research.utwente.nl/en/publications/the-digital-divide-2/. research.utwente.nl
20. Van Deursen A. J. A. M., Van Dijk J. A. G. M. The First-Level Digital Divide Shifts from Inequalities in Physical Access to Inequalities in Material Access // New Media & Society. – 2019. – Vol. 21, № 2. – P. 354–375. – DOI: https://doi.org/10.1177/1461444818797082. pmc.ncbi.nlm.nih.gov
21. Oxunova O. U. Aholi bandligini ta'minlashda gender tengligiga ustuvorlik berishning nazariy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – URL (himoya e'loni): https://oak.uz/pages/22050. oak.uz
22. United Nations Development Programme. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: raqamli tadbirkorlik va sun'iy intellekt holati [Elektron resurs]. – 14.05.2025. – URL: https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/ozbekistonning-raqamli-iqtisodiyoti-raqamli-tadbirkorlik-va-suniy-intellekt-holati. United Nations Development Programme
23. Abraham M., Wieser L., Schnabel C., Niessen C., Bergmann S. The Digital Gender Divide in Germany: The Role of Preferences and Constraints in Digital Involvement and Wages. – Bonn: IZA Institute of Labor Economics, 2025. – August. – IZA Discussion Paper № 18097. – URL: https://www.iza.org/publications/dp/18097/the-digital-gender-divide-in-germany-the-role-of-preferences-and-constraints-in-digital-involvement-and-wages. IZA - Institute of Labor Economics
24. Acker J. Hierarchies, Jobs, Bodies: A Theory of Gendered Organizations // Gender & Society. – 1990. – Vol. 4, № 2. – P. 139–158. – DOI: https://doi.org/10.1177/089124390004002002. doi.org
25. Folbre N. The Invisible Heart: Economics and Family Values. – New York: The New Press, 2001. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA53128811. ci.nii.ac.jp
26. Hochschild A. R., Machung A. The Second Shift: Working Parents and the Revolution at Home. – New York: Viking, 1989. – URL: https://iucat.iu.edu/catalog/4153900. IUCAT !